

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK 336.717(575.1)**

SAIDOVA SUBHINIGOR AZIZOVNANING

**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AYOLLARNI TADBIRKORLIK
FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH
YO'LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar: Mo'minova Ma'suda Baxtiyarovna, DSc., professor

Toshkent – 2024

	KIRISH.....
I BOB	TIJORAT BANKLARIDA AYOLLARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....
1.1.	Tijorat banklarida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....
1.2.	Tijorat banklarida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning huquqiy-me'yoriy jihatlar.....
1.3.	Tijorat banklarida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning amaliy ahamiyati.....
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....
II BOB	AYOLLARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING TAHLILI.....
2.1.	Tijorat banklarida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni zamonaviy holatining tahlili.....
2.2.	Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....
2.3.	Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....
	II bob bo'yicha xulosa.....
III BOB	O'ZBEKISTONDA AYOLLARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....
3.1.	O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog'liq muammolar.....
3.2.	Ayol tadbirkorlarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish tendensiyalari.....
3.3.	O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari.....
	III bob bo'yicha xulosa.....
	XULOSA VA TAKLIFLAR.....
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro Mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra «Dunyoda ayollarning 45,6 foizi «iqtisodiy faol»lar qatoriga kiradi, ya'ni ishchi kuchi hisoblanadi, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Karib havzasi, Janubiy- Sharqiy Osiyo, G'arbiy Yevropaning eng rivojlangan mamlakatlarida bunday ishchi kuchi ayollarning sal kam yarmini tashkil etadi. Dunyoda 30,5 foizdan ziyod oila o'z daromadlarining asosiy manbai bo'lgan ayollarning ish haqi hisobiga yashaydi, Yevropada 60,5 foiz oilada ayollarning daromadlari byudjetning yarmini yoki undan ko'prog'ini tashkil etadi. Dunyoning 142 davlatida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra ayollarning 29,0 foizi ish xaqi to'lanadigan ishda, 41,2 foizi oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish va ish bilan band bo'lish, faqat 27,5 foiz ayollar esa ish bilan band bo'lishni xohlamaydilar¹».

Jahon miqyosida ayollar ish bilan bandligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini takomillashtirish jumladan, ayol ishchi kuchining zamonaviy ish o'rinlari tuzilishi o'zgarishiga moslashuvini oshirish, virtual ish joylarini joriy etishning samarali va tezkor innovatsion yo'llarini ishlab chiqish, kasbiy malakalarni oshirishda ish beruvchilarning talablariga asosan malaka oshirish tizimini tashkil etish, farzandlar tug'ilishi hamda ularning tarbiyasi bilan bog'liq ayollarning hayotiy sikl modelini e'tiborga olgan holda, qo'shimcha ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash strategiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslarini takomillashtirish muhim tadqiqot yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekistonda xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni hamda nufuzini oshirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, ularning tadbirkorlik salohiyatini namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda, tijorat tashkilotlari mablag'lari

¹ Towards a better future for women and work: Voices of women and men. MOT Preventing Discrimination, Exploitation and Abuse of Women Migrant Workers: An Information Guide, 2017. DOI: <http://dx.doi.org/10.1017/S1365100500656>